

**AXSIKENT ARXELOGIYA EKSPEDITSIYASI TARKIBIDA
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI TALABALARINING OLIB
BORGAN TADQIQOTLARI XUSUSIDA**

Sh. N. Nasriddinov

Namangan Davlat universiteti

“Arxeologiya” kafedrasida katta o‘qituvchisi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.22719749>

Annotatsiya: Maqolada Axsikent arxeologiya kompleks ekspeditsiyasi bilan hamkorlikda Namangan davlat universiteti arxeologiya va tarix yo‘nalishi talabalarining arxeologiya qazishmalarida olib borgan tadqiqotlari va qo‘lga kiritgan moddiy topilmalari haqida ma’lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: Axsikent yodgorligi, Uchtepa-Buloqmozor yodgorlik majmuasi, Aysi qishlog‘i topilmalari, Pop To‘da qishlog‘i topilmalari, Chortoq Qorabog‘ xumlar topilma majmuasi.

**ОБ ИССЛЕДОВАНИЯХ, ПРОВЕДЕННЫХ СТУДЕНТАМИ
НАМАНГАНСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА В
СОСТАВЕ АХСИКЕНТСКОЙ АРХЕОЛОГИЧЕСКОЙ ЭКСПЕДИЦИИ**

Ш. Н. Насриддинов

Наманганский государственный университет,

старший преподаватель кафедры «Археология»

Аннотация: В статье представлены сведения об исследованиях и материальных находках, полученных студентами направлений «Археология» и «История» Наманганского государственного университета в ходе археологических раскопок, проводимых совместно с Ахсикентской комплексной археологической экспедицией.

Ключевые слова: археологический памятник Ахсикент, комплекс памятников Учтепа-Булукмозор, находки из села Ахси, находки из села Туда (Папский район), комплекс находок хумов из Карабага (Чартакский район).

ON THE RESEARCH CONDUCTED BY STUDENTS OF NAMANGAN STATE UNIVERSITY WITHIN THE FRAMEWORK OF THE AKHSIKENT ARCHAEOLOGICAL EXPEDITION

Sh. N. Nasriddinov

*Senior Lecturer, Department of Archaeology,
Namangan State University*

Abstract: This article presents information regarding the research activities and material artifacts acquired by students majoring in Archaeology and History at Namangan State University during archaeological excavations carried out in collaboration with the Akhsikent Archaeological Expedition.

Keywords: Akhsikent archaeological site, Uchtepa-Buloqmozor monument complex, findings from Akhsi village, findings from Tuda village (Pop district), Qorabog complex of khum findings (Chortoq district).

Arxeologiya sohasiga bo‘lgan e’tibor so‘nggi yillarda tubdan o‘zgardi, xususan 2019-yilning 28-fevral 1-mart kunlari Prezident Shavkat Mirziyoyevning Namangan viloyatiga tashrifi davomida Axsikent arxeologiya yodgorligida tashkil etilgan “Ochiq osmon ostidagi muzey” va bu yerda olib borilgan ishlar bilan tanishdi. Arxeologiya ilmiy tadqiqotlarini kengaytirish maqsadida Namangan davlat universitetida Arxeologiya yo‘nalishi bo‘yicha bakalavriat va magistratura uchun kvota ajratish bo‘yicha Prezident alohida ko‘rsatma berdi. 2019-2020 o‘quv yilida ilk bor 33 ta bakalavriat va 17 ta magistratura bosqichiga talabalar qabul qilindi. 2020-yilda Arxeologiya kafedrasini tashkil etildi va O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Milliy arxeologiya markazi hamda Samarqand arxeologiya ilmiy tekshirish instituti bilan ilmiy hamkorlikda tadqiqotlar olib borila

boshlandi. Kafedra faoliyatini tashkil etish va ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida akademik Axmadali Asqarov, professor Abdulxamid Anarbayev, t.f.d. Farhod Maqsudov, PhD Mo‘minxon Saidov, PhD Surat Kubayevlar talabalarga nazariy va amaliy bilimlar berish maqsadida mashg‘ulotlar olib borish uchun taklif qilindilar. Namangan viloyatining bir qator yodgorliklarda, xususan To‘raqo‘rg‘on tumanidagi Axsikent, Norin tumanidagi Uchtepa-Buloqmozor, Pop tumanidagi Qirqxujra, Chust tumanidagi Bibiona arxeologiya yodgorliklarida olib borilgan qazishma ishlari va tadqiqotlarda talabalar faol ishtirok etib kelmoqdalar (Anarboyev A.A., Baratov S.R., Kubaev S., Saidov M., Nasriddinov Sh. 2016. B.23).

Xususan 2019-yilning kuzgi mavsumida Axsikent ekspeditsiyasi “Axsikent Qoraxoniylar davri (XI-XII asrlar) tarixiy topografiyasi va uni turizm obyektiga aylantirish” mavzusidagi loyiha asosida olib borilgan dala arxeologiya tadqiqotlari davomida Axsikent yodgorligining 8 A, 18, 11 va 19, 24 obyektlarida qazish ishlari olib borildi va boy moddiy manbalar qo‘lga kiritildi (A. Anarbaev, S. Kubaev, Sh. Nasriddinov, Sh. Omanov, R. Murodaliev, M. Pardaev. 2020. B.18-27). Tadqiqotlar davomida Axsikent yer osti suv inshootining tarmog‘i, ichki shahristonning mudofaa devorining o‘rganilishi, turar joylarning qoldiqlari va ulardagi devoriy rasmlarning aniqlanishi va pishiq g‘ishtdan qurilgan mustahkam oziq ovqat omborlarining topilishi talabalarda arxeologiya bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda mustahkamlashlari uchun katta ilmiy maktab bo‘ldi.

Shuningdek “Uchtepa Buloqmozor” majmuasi arxeologik yodgorliklarini o‘rganish va ularni “Moviy osmon” ostidagi muzeyga aylantirish” mavzusidagi ilmiy grand asosida 2019-2021-yillarda Uchtepa-2 yodgorligida olib borilgan qazish ishlarida ham universitetning arxeologiya yo‘nalishi magistratura va bakalavr bosqichi talabalari faol ishtirok etdilar. Tadqiqotlar natijasida bu yodgorlik atroflicha o‘rganilib akademik Axmadali Asqarovning ilmiy xulosasiga ko‘ra bu yerda Zardo‘shiylik ibodatxonasi bo‘lganligi aniqlandi va yodgorlik mill.

avv. IV va milodiy VIII asrlar bilan davrlashtirildi (Asqarov.A., Asqarov.Q.,To‘xtasinov.D.,Raxmonov.U.2020. B.23.). Qazish vaqtida aniqlangan ibodatxona inshootining qoldiqlari va otashkadalarni saqlab qolish uchun kimyoviy moddalar yordamida qotirish, konservatsiya va restavrviya ishlari jarayonida talabalar yodgorliklarda tashkil etiladigan ochiq osmon ostidagi muzeylarni tayyorlashda bevosita ishtirok etdilar.

2021-yilning kuzgi mavsumida “G‘ovasoy xavzasida antropogen landshaftning shakllanishi va Chust (Bibiona) tarixi” mavzusidagi ilmiy loyihasi bo‘yicha (Anarbaev A.A., Baratov S.R., Nasriddinov Sh., Omonov Sh., Najmiddinov A. 2021.C.205). Chust tumanidagi Bibiona va Pop tumanidagi Qirqxujra (Chilxujra) arxeologiya yodgorliklarida olib borilgan qazishmalarda ham talabalar faol ishtirok etdilar. Axsikent ekspeditsiyasi rahbari Abdulxamid Anarbayev tomonidan ikkita otryad shakllantirilib ikkita yodgorlikda tadqiqotlar olib borildi.

Hozirgi kunda viloyatimiz xududida 150 ga yaqin arxeologiya yodgorliklari mavjud bo‘lib, ularning atiga 10 ga yaqini ilmiy jihatdan o‘rganilgan xolos. Shuningdek aholi xonadonlari va tomorqa hovlilaridan ham qadimgi davrlarga oid moddiy ashyolarning topilishi arxeologiya tadqiqotlarini yanada kengaytirishga sabab bo‘lmoqda. 2020-2021-yillar davomida Namangan viloyati madaniy meros boshqarmasining murojaatiga asosan bir nechta xonadonlarda tadqiqotlar olib borildi. Shuningdek Namangan viloyati arxeologik yodgorliklari ro‘yxatga olindi (Anarbaev A.A., Nasriddinov Sh. 2009. C.20).

2020-yili Pop tumani Sang qishlog‘i O‘zbekiston MFY Vatan ko‘chasida yashovchi fuqaro Xoldarov Samandar o‘z xonadonida issiqxona tashkil etish maqsadida 4X10 metr, chuqurligi 1.5 metr xajmda o‘ra qaziydi va katta xumni butun xolatda topib oladi. Lekin xum ichidagi tuproqni bo‘shatish jarayonida bo‘laklarga bo‘linib ketadi, so‘ng ular madaniy meros boshqarmasiga murojaat qiladilar. Topilma joyini atroflicha o‘rganish mobaynida xumning o‘lchamlari

(balandligi 1.5m, og‘iz qismining kengligi 75 sm, tag qismi esa 25-30 sm) aniqlanadi va atrofidan chiqqan boshqa topilmalar ham ko‘rib chiqildi. Topilmalar orasida II-IV asrlarga oid qizil angobli va ilk o‘rta asrlarga oid sopol bo‘laklari borligi mutaxassis arxeologlar tomonida xulosa qilindi. Bunday yirik xumlar esa asosan 300 kilogramgacha oziq ovqat mahsulotlarini saqlashga mo‘ljallangan bo‘lib antik davrlarga oid yodgorliklarda aniqlanganligi topilmaning davriga yakuniy xulosa bo‘ladi.

2020-yili To‘raqo‘rg‘on tumani Aysi qishlog‘i “Kelarchi” MFY da yashovchi Abdulbori Salimov o‘z xonadonida yangi inshoot qurish maqsadida yerni qazib ocha boshlaganda turli qadimgi davrga oid sopol parchalari bilan birgalikda katta xum bo‘laklarini ham topib oladi. Shu qishloqda yashovchi tajribali pedagog, rassom Alijon Turdaliyev ushbu tarixiy noyob topilmani o‘rganishga kirishadi. Dastlabki qazish ishlarini olib borish oxiriga yetkazilmay qoldi va xumlarga shikast yetkazmaslik maqsadida qayta ko‘mib qo‘yildi. 2020-yilda ushbu xonadonda Namangan davlat universiteti va O‘zR FA Milliy arxeologiya markazi hamda Axsikent arxeologiya merosi obyektni muxofaza qilish va tadqiq etish direksiyasi hamkorligida olib borilgan tadqiqotlar natijasida xumlar to‘la ochib o‘rganildi va nima maqsadda foydalanilganligiga aniqlik kiritildi. Yer satxidan 60 sm chuqurlikda ikkita katta xum tik xolatda, og‘zigacha ko‘milganligi aniqlandi va ochib o‘rganildi. Topilgan xumlarning xolati yaxshi, ko‘rinishidan butunga o‘xshasada uzoq vaqt kuchli namlik va zaxda turganligi, shuningdek yer qatlamlarining qisishi natijasida dars ketgan va yorilganligi uchun butun holatda olib bo‘lmadi. Ularning ichi tuproq bilan zich holatda to‘lib qolgan va asta sekinlik bilan ochilishi natijasida birinchi xumda don va ikkinchi xumda esa go‘sht mahsulotlari saqlanganligi xulosa qilinmokda. Don saqlangan birinchi xumning ichidan xajmi kichikroq (bo‘yi 40sm, gardishining dm 25sm, tag qismi saqlanmagan) yana bir xumchaning siniqlari borligi aniqlandi. Tahlil uchun olingan tuproqlarda mayda chirindilar ko‘p uchraydi va bu orqali

qanday donlar saqlanganligini aniqlash mumkin. Shuningdek, bunday kattalikdagi xumlarda 250-300 kilogramgacha don mahsulotlari saqlangan. Ikkinchi xumni tozalash vaqtida tuproqqa aralashib ketgan ko‘plab qo‘y suyaklari borligi ma’lum bo‘ldi va juda kichkina (6-8 sm kattalikda) olti dona (bittasi juda yomon saqlanganligi uchun tiklab bo‘lmadi) qizil angobli sopol ko‘zachalar ham aniqlandiki, ularda mahsulotni aynimasligi uchun qandaydir suyuqliklar solib qo‘yilgan bo‘lishi mumkin. Xumlarni maxsus yerga ko‘mib qo‘yish uchun moslab yasalgan, chunki ularning tag kismining diametri 25-30 sm, qorin kismining kengligi 0.90-1.00 metr atrofida, og‘zi katta bo‘lib diametri 70-72 sm, balandligi esa 1.40-1.50 m. Xumlarning pishirilishi va yasalishi sifatli, devorlarining kalinligi 3 sm. Qazish davomida yukori katlamlardan XV-XVI asrlarga oid sirli sopol parchalari, shuningdek xum va uning atrofidan III-IV asrlarga tegishli qizil angobli sopollar ham aniqlandi.

2021-yilning mart oylarida Pop tumani Tuda qishlog‘i fermer xo‘jaligi paxta dalalari xududi (Shimoliy Farg‘ona kanali yoqasida), Oqtepa yodgorligi¹¹¹dan ikki yuz metr g‘arbda joylashgan)da ishchilar tomonidan ariq tozalash davomida sopol bo‘laklari va bitta xum qoldiqlarini topib oladilar. Xo‘jalik raisi darhol tuman xokimiyatiga murojaat qiladi va madaniy meros boshqarmasi xatiga asosan Namangan davlat universiteti mutaxassislari va talabalar tomonidan qazish ishlari va ilmiy tadqiqotlar olib borildi. Xumning atrofini kengroq ochish va qatlamlarni tahlil qilish uchun 4X2 metr xajmda qazish ishlari boshlandi. Tadqiqotlar davomida 50-60 sm chuqurlikdan uchta katta xum qoldiqlari aniqlandi va ichki qismi to‘proqdan to‘la tozalandi. Xumlarning saqlanish xolati va xajmi har xil bo‘lib deyarli hammasi yorilgan, singan xolatda.

Har uchchala xumlar ham tashqi tomonidan tuproqni zich xolatda shibbalab qotirilgan bo‘lib, asosan oziq ovqat saqlash uchun ishlatilgan. Ularning xajmiga

¹¹¹ Yodgorlik Madaniy meros boshqarmasi ro‘yxatiga 1980-yilda olingan bo‘lib antik davrga oid.

qarab 250-300 kilogacha donlar saqlangan bo‘lishi mumkin. Xumlarning ichidagi tuproqlarni tozalash mobaynida sinchkovlik bilan o‘rganildi va xech qanday urug‘ va chirindi qoldiqlari aniqlanmadi. Atrofdagi topilmalar va xumlarning yasash uslubiga qarab bu topilmalar III-IV asrlarga tegishli deb davrlashtirish mumkin.

Shuningdek, 2021-yilning aprel oyida Chortoq tumani Qorabog‘ MFY hududidagi Saidjon Hayitmatov xonadonidan hovlisida xo‘jalik ishlari faoliyati davomida xum bo‘laklari chiqqayotganligi to‘g‘risida Madaniy meros boshqarmasiga ma‘lumot berildi. Ushbu ma‘lumot asosida Namangan davlat universiteti Arxeologiya kafedrasida xodimlari tomonidan birlamchi o‘rganilganda yer sathidan taxminan 1 m pastda bir necha xum qoldiqlari qayd etiladi. Shundan so‘ng ushbu joyda arxeologik qazuv ishlari olib borildi¹¹². Qazuv maydoni sharq g‘arb tomon yo‘nalgan bo‘lib, 23x3 m o‘lchamni tashkil etdi. Qazishma maydoni janubdan shimol tomon pasayib borganligi sababli shimoliy qirg‘og‘i notekis ko‘rinishda.

Qazishma jarayonida turli darajada saqlangan 20 ta xum qoldiqlari aniqlandi. Deyarli barcha xumlarda ta‘mir izlari mavjud bo‘lib, 0,5 sm qalinlikdagi gips yoki loy suvoq qoldiqlari yoki xum devorlaridan 7-12 sm uzoqlikda boshqa xum bo‘laklari kuzatiladi.

Xumlar ichida tuproq uyumi bilan birgalikda kam sonli sopol bo‘laklari aniqlangan. Jumladan, 1 va 15 raqamli xum ichida qizil angob berilgan sopol parchalari kuzatilgan bo‘lsa, 8 raqamli xum ichida esa silindirsimon ko‘rinishdagi idish qayd etildi. Idish kulrang tusda bo‘lib, uzunligi 23 sm, gardish qismi dm 6 sm, tag qismi dm esa 4,5 sm ni tashkil etadi. Gardish qismi tik, tuprog‘i zich. Bundan tashqari xum ichidan ichki va tashqi qismiga jigarrang angob berilgan qadah idishining tag qismi aniqlandi. Xumlar joylashgan sath va qazishma maydonida ko‘p sonli sopol buyumlar parchalari kuzatildi. Ushbu sopol buyumlari

¹¹² Qazishmalarga Samarqand arxeologiya instituti katta ilmiy xodimi M. Saidov jalb qilingan.

parchalari tahlil qilinganda sopol parchalarining katta qismi xum hamda yirik xo‘jalik idish bo‘laklaridan iborat ekanligi qayd qilindi. Umumiy songa nisbatan 2-3 foiz idish parchalari mayda oshxona (kosa, tovoq, piyola, xurmacha va xok) idishlari parchalaridan iborat bo‘lib, bunday idishlarga qizil yoki jigarrang angob berilgan.

Shu bilan birgalikda xum o‘rnatilgan sathdan ko‘p sonli tosh bo‘laklari jumladan mayda yorg‘uchoq qoldiqlari ham qayd etildi. Xumlarning joylashuvi, unda aniqlangan topilmalar ushbu hudud oziq ovqat saqlanadigan omborxona bo‘lganligidan dalolat beradi. Lekin, xumlar aniqlangan hududda arxeologik yodgorlik qayd etilmagan bo‘lsada, topilmalar aniqlangan joydan g‘arb tomonda, Chortoqsoyning chap irmog‘i atrofida ekin maydoniga aylantirilgan hudduda 100 m lar atrofida sopol parchalari sochilib yotganligini ko‘rish mumkin. Shu bilan bir qatorda Chortoqsoyning yuqori oqimida 10 ga yaqin qishloq makonlari saqlanib qolganligi ham ushbu hudduda ham qishloq makoni bo‘lganligi va oziq ovqat ombori ham shu qishloq makoniga tegishli ekanligi borasida fikr yuritish imkonin beradi. Xumlarning ko‘p martalab ta‘mirlanishi, ayrim hollarda esa oldingi xum ichiga yangisini joylashtirilishi omborxona uzoq muddat faoliyat ko‘rsatganligidan dalolat beradi. Xususan, qazishma va xumlar to‘plamida aniqlangan topilmalar II-IV asrlar bilan davrlashtiriladi.

Bunday katta xumlar yasash uslubiga ko‘ra antik davr xumlariga o‘xshashligi va asosan, har xil don mahsulotlari, maxsus ichimliklar (vino va sharbatlar) hamda go‘sht mahsulotlarini saqlash uchun foydalanilganligi bir qator arxeologiya yodgorliklaridan topilgan topilmalar orqali ham aniqlangan.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etish mumkinki, Chortoqdagi tadqiqotlarni yana davom ettirish zarur, chunki yana 8 metr joyni o‘rganish va shu bilan birgalikda kelgusi tadqiqotlar davomida omborxonaning qolgan xududini ham atroflicha aniqlash maqsadga muvofiq. Qadimgi Xitoy manbalarida qayd etilgan Davan davlati haqidagi ma‘lumotlarda Farg‘ona xududida bog‘dorchilikda asosan uzum

yetishtirish va uzum sharbati, ya’ni vino tayyorlash bo’yicha tajribali bo’lganligi, shuningdek boy xonadonlarda sarxush qiluvchi vinolar katta xumlarda o’n tonnagacha saqlanganligi yozib qoldirilgan. Sifati zo’r, bir necha yillik o’tkir vinolarni juda qimmat narxlarda sotganliklari aytib o’tiladi. Farg’ona vodiysida bu kabi bir joydan topilgan ko‘plab xumlarning aniqlanishi ilmiy yangilik bo’lib, aynan yozma manbalarda keltirilgan ma’lumotlarga dalil sifatidagi topilma hisoblanadi. Yuqorida o’rganilgan oziq ovqat zahirasi omborlarini biror inshoot ichida ekanligini tasdiqlovchi qurilish qoldiqlari aniqlanmadi, lekin barcha xumlarning tashqi tomonidan tuproq bilan shibbalab, ba’zilarini maxsus qorishmalar bilan gardish qismigacha qotirib chiqilgan. Tadqiqotlardan xulosa qilish mumkinki bu omborlar strategik ahamiyatga ega bo’lib asosan yer ostida maxfiy joylashtirilgan va bir necha yillar davomida ta’mirlab, yangilangan xolatda foydalanib kelingan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. А. Анарбаев, С. Кубаев, Ш. Насриддинов, Ш. Оманов, Р. Муродалиев, М. Пардаев. 2018-2019 йилларда Ахсикент ёдгорлигида олиб борилган археологик тадқиқотлар. // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар 2018-2019 йиллар- Самарқанд, 2020. №12.- Б. 18-27.
2. Анарбоев А.А., Баратов С.Р., Кубаев С., Саидов М., Насриддинов Сх. Чилхужра қадимий манзилгоҳи бо‘йича 2013-йилда археологик тадқиқотлар // О‘збекистонда 2013-2014-йилларда археологик тадқиқотлар. Самарқанд. 2016. С. 23 - 36.
3. Анарбаев А.А., Баратов С.Р., Насриддинов Ш., Омонов Ш., Нажмиддинов А. Новые археологические работы на поселении Чуст – Бибиона в 2021 году. // Археологические работы в Узбекистане 2020 год. Выпуск – 13. Самарканд. 2022

4. Анарбаев А.А., Насриддинов Ш. Уникальное открытие в Наманганской области // Ўзбекистонда археологик тадқиқотлар. 2006-2007 йиллар. 6 - сони. Тошкент, 2009.

5. Анарбаев А.А., Баратов С.Р. Новые археологические работы на поселении Чуст – Бибиона. // ИМКУ 42. Самарканд. 2022. С. 204 – 226.

6. Асқаров.А., Асқаров.Қ.,Тўхтасинов.Д.,Рахмонов.У. Учтепа-Булоқмозор археологик ёдгорлигида ўтказилган тадқиқотлар// Фарғона водийси тарихининг долзарб муаммолари. Наманган. 2020-йил.